

## Talabalarda qisqa muddatli etyudlarni ishlash metodikasini rivojlantirish

*Xudoyberdiyev Mirolim Iskandar o'g'li*

*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi  
kafedrasini o'qituvchisi, Jizzax, O'zbekiston  
e-mail:mirolimxudoyberdiyev@gmail.com*

*Annotatsiya. Har qanday nazariy bilimni mustahkamlashda albatta amaliyotga tayanadi. Shunday ekan tasviriy san'at darslari jarayonida olingan bilimlarni mustahkamlash uchun o'quv amaliyotlari (plener) mashg'ulotlari tashkil qilinadi va bunda tabiatni, borliqni, ranglarni jonli holda ko'radi va tasvirlaydi. Shu jarayonda talaba o'quvchilarga etyudlar ishlash texnikasini o'rgatish zarur va bu maqolada ko'rsatib o'tilgan.*

*Kalit so'zlar: plener, etyud, havo perspektivasi, tus, hajm, nisbat, rang koloriti.*

\*\*\*

*Annotation. In consolidating any theoretical knowledge, of course, rely on practice. Therefore, in order to consolidate the knowledge gained in the course of fine arts lessons, plenipotentiary classes are organized, in which the child sees and describes nature, being, colors in a vivid way. In the process, students need to be taught the techniques of etudes, which are outlined below*

*Keywords: plein air, etude, weather perspective, hue, size, ratio, color scheme.*

Yosh rassomlar dastlabki ta'lim bosqichida, odatda, chizayotgan narsani yuzaki, xuddi o'ziday ko'chirishga harakat qiladi. Ular diqqat bilan oldinma-ketin narsalarga tikilib qarashadi, so'ngra har bir mayda bo'laklarni va ularning rangini alohida-alohida bo'yashadi. Natijada tasvir maydalangan va bir butun ko'rinishda bo'lmaydi. Bunday kamchiliklar qo'yilmaning predmetlar orasidagi katta rang munosabatlarini etyudda ko'rsata olmaslikdan kelib chiqadi. Inson kallasini tasvirlashda ham, masalan, yuzning mayda bo'laklaridan boshlab bo'lmaydi, faqat harakatdagi, nisbatlarda umumiylik va yaxlitlikdan boshlashi, rangtasvirda esa ham turli natura obyektlari (natyurmort, manzara) yoki narsalarning asosiy umumlashtirilgan dog'lar orasidagi ranglar munosabatini aniqlashni o'rganib olishi kerak. Natura obyektini yaxlit ko'rish va katta asosiy ranglar dog'ini aniqlay bilish – muhim kasbiy mahorat, u esa dastlabki rangtasvir ta'limida shakllangan bo'lishi kerak. Faqat shundan so'ng uzoq muddatli (vaqt bo'yicha) ishlarga, manzara obyektlari yoki natyurmortdagi buyumlarning hajmli shakllarini puxta ishlov berishga o'tish mumkin.

Ochiq havoda (plener) kichkina-etyudlarni rangda ishlashda avvalo asosiy rang munosabatlarini topa olish muhimdir. Buning uchun naturaning old ko`rinishidagi qarama-qarshi (tusli va rangli) dog`larni uzoqdagiga nisbatan taqqoslash kerak. Kichik o`lchamdagi etyudlarda mayda bo`laklarga e`tibor berilmaydi, asosan katta rang munosabatlarida yoziladi. Manzara etyudlarini bajarishda uncha murakkab bo`lmagan syujetlar tanlanadi (masalan, uy bilan hovlining bir bo`lagi).

Keyinchalik vazifani murakkablashtirib ochiq kenglikdagi manzarani tasvirlashga o`tiladi. Bunday etyudlarda havo perspektivasidagi, masalan manzaradagi rang, och-to`qlik va to`yinganligini turli ko`rinishlaridagi hodisalarga asosiy e`tiborni qaratish lozim. Bunga esa manzaraning barcha ko`rinishlarini taqqoslash yo`li bilan yaxlit idrok qilish orqali erishiladi.

Masalan, old ko`rinishdagi daryo qirg`og`i ikkinchi hamda uzoqdagi ko`rinish bilan, shuningdek bir vaqtda osmon va uning suvdagi aksi bilan ham taqqoslanadi (etyudni ishlash vaqti 15-30-60 daqiqa bo`lishi mumkin).

«...Etyudni shunday tasvirlash kerakki, birdan yer bilan suvni osmonga nisbatan tus munosabatlarini anglab, mohiyatini ilg`ab olish kerak» – deydi K.A. Korovin o`z shogirdlariga. Uning o`zi etyudlarda asosiy rang munosabatlarini qurishning mohir ustasi bo`lgan.



**Qisqa vaqtli etyud. Gullar.**



**Gullar etyudi.**

Qisqa muddatli etyudlarni bajarish maqsadi turlicha bo`lishi mumkin: bir holatda etyud uzoq davomli ish oldidan bajariladi va unda naturadagi rang munosabatlari tahlil qilib o`rganiladi hamda uning koloritiga xos birinchi taassurotlar belgilanadi: boshqa holda esa – shakllarni qo`shimcha va puxtaroq o`rganish maqsadida uning mayda bo`laklari (inson qo`lining etyudi, manzaraning ayrim bo`laklari) aniqlanadi. Rangtasvirning ayrim qonuniyatlarini puxta o`rganish uchun dala amaliyotida etyudlar bajariladi: umumiy yoritganlik holati, kolorit yaxlitligi va h.k. Manzaraning etyudini tasvirlashda har doim yorug`lik tez-tez o`zgarib turadi. Hattoki quyosh bulutlar ortida bo`lsa ham, u manzaraga bevosita ta'sir qiladiki, seansni boshlanishida va so`nggida manzaradagi yorug`lik holati doim turlicha bo`ladi.



**Natyurmort etyudi.**

Natyurmortning umumiy tus va rang holatini xonaning ichki sharoitida aniq kuzatish uchun tuzilgan sodda natura qo`yilmalari bilan bir nechta qisqa muddatli etyudlar bajarilsa, ammo yorug`lik manbai har xil masofada joylashtirilgan bo`lsa, ya'ni deraza yaqinida, xona o`rtasida va derazadan uzoqlashgan holatda (xonaning ichkarisida). Dastlabki natyurmort qo`yilmasi derazaga yaqinroq joylashtiriladi, natijada u boshqalarga nisbatan kuchliroq yoritilgan bo`ladi. Keyingi qo`yilmalarni yoritilishi esa biroz sustroq bo`ladi. Bu o`quv qo`yilmalari orqali etyudlardagi soya-yorug`, rang hamda yoritilishni pasaytirilishi yoki kuchaytirilishiga bog`liq holda etyudning umumiy tus va rang holatini qanday ko`rinishini namoyish etiladi.

Koloritga, ya'ni rang qatorining birligi va uyg`unligiga xos qisqa fursatli etyudlar bajarish muhimdir. Bunday maqsadli qo`yilmalarda qandaydir ma'lum bir rang ustun turishi kerak. Masalan, natyurmortni sun'iy issiq yorug`lik bilan yoritish mumkin. Bunday etyudlarda mayda bo`laklarni batafsil ishlab chiqishga hojat yo`q. Munimi, rang gammasini, uning birligi va uyg`unligini tushunib yetkazish. Qisqa muddatli etyudlardagi qo`yilmalarni issiq va sovuq gammalarda almashtirib turish lozim.

Yosh rassomning uzluksiz mashqlari natijasida, ranglardagi nozik o`zgarishlarni farqlashga, kuzatuvchanlikni rivojlanishiga, rang-baranglikni sezishga, hamda tasviriy vositalarni mohirona egallashiga zamin yaratadi. Tajribali rassomlarning etyudlarini kuzatganda ularning nihoyatda nafis va jozibali

tasvirlanganiga havas bilan qaraymiz. Naturaning rangdor koloritli holatini mohirona tasvirlash mahorati uzluksiz amaliy ishlash natijasida erishiladi.

Shunday qilib, naturaning asosiy obyektlari orasidagi umumiy va katta ranglar munosabatini ma'lum tus va ranglar ko'lamida saqlanganligi rangtasvirning asosidir. Shular asosida obyektlarning keyingi ranglarda ishlashning o'ta nozik jarayoni amalga oshiriladiki, bu tabiatni diqqat bilan kuzatish, uni jonli his etish natijasidir. Buning ustiga, rangli tasvir natyurmortning alohida buyumlari yoki manzara obyektlarini nusxasini yuzaki ko'chirish orqali yaratilmaydi, u buyumlarning rang munosabatlari va ularning fazoviy kenglik bilan birga o'zaro bog'liq holda, yaxlit obraz asosida rassomning idrok etishi natijasida quriladi. Har qanday natura qo'yilmasini yaxlit obraz sifatida qabul qilish lozim. Natyurmortning turli narsalardan tuzilganligini, masalan, qumg'on, olma, piyola; manzarada esa – alohida osmon, o'rmon va yiroqdagi ko'kimtir tog'larni ma'lum vaqtga yoddan chiqarish kerak. Naturaga bunday qarash orqali buyumlarning shaxsiy rangini ko'rish mumkin – bu rangli kartinaning bir qismi xolos, ranglarning jarangdorligi, uning yaxlitligi tasvirlash mobaynida namoyon bo'ladi, bu esa xuddi turli musiqa asboblarida ijro etilayotgan yaxlit simfonik asar singari jaranglaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Beda. V. Rangtasvir. M. 1968 yil.
2. Borsh K. Qalamtasvir. M. 1974 yil.
3. Vinner A.V. Materiali i texniki jivopisi. M. 1962 yil.
4. Gusev V.N. Akvarelniye kraski. M. 1979 yil.
5. Nabiyev. M. Rangshunoslik va Rangtasvir asoslari T. 1995 yil.
6. Xudoyberdiyev, M. (2021). “manzara rangtasvirini” o'qitishda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning usullari. *Журнал музыки и искусства*, 2(2).
7. Pardayev, B. (2020). Ўқувчиларни касб-хунарга йўллаш технологияларини ишлаб чиқиш ва ўқув-тарбия жараёнига татбиқ этиш. *Журнал музыки и искусства*, 1(1).
8. Baymurzayeva, O. (2020). Тасвирий санъат дарсларида амалий машгулотларни табиат ходисалари билан боғлиқ фанлар буйича интеграциялаш технологияси: тасвирий санъат дарсларида амалий машгулотларни табиат ходисалари билан боғлиқ фанлар буйича интеграциялаш технологияси. *Архив Научных Публикаций JSPI*.